

**ITALYAN TILIDAGI ANTONIMLARNING SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA ULARNI TARJIMA JARAYONIDA IFODALASH
MUAMMOLARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20713795>

Qo'chqorova E'zoza Ikramdjan qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

"Tarjima nazariyasi va amaliyoti italyan tili" fakulteti talabasi

ikromjonovnaezova@gmail.com Ilmiy rahbar: **Otaxonova Munisaxon Janibek qiz**

Annotatsiya

Ushbu maqolada italyan tilidagi antonimlarning semantik xususiyatlari va ularni tarjima qilish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar hamda mazkur muammolarni yengish uchun samarali usullar tahlil qilinadi. Xususan, leksik – semantik muammo va ikki madaniyat o'rtasidagi madaniy – ma'no tafovutlari bilan bog'liq murakkabliklar alohida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ushbu muammolarni bartaraf etishda bir qancha samarali tarjima usullari haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar

italyan tili, antonimiya, leksik-semantik xususiyatlar, strukturaviy antonimlar, sof leksik antonimlar, derivatsion antonimlar, gradual antonimlar, komplementar antonimlar, vector antonimlar, kannotativ ma'no, lisoniy asimmertriya, leksik-semantik muammo, madaniy-ma'no tafsiflari, semantic kompensatsiya, funksional ekvivalent, tasviriy tarjima, kalkalash usuli.

Abstract

This article analyses the semantic features of antonyms in the Italian language, the main challenges encountered in their translation process and effective methods to overcome them. In particular, the lexical – semantic problems and complexities associated with cultural – semantic differences between the two cultures are comprehensively examined. Furthermore, the article provides detailed insights into several effective translation techniques utilized to address and eliminate these issues.

Keywords

Italian language, antonymy, lexical-semantic features, structural antonyms, absolute/proper lexical antonyms, derivational antonyms, gradual antonyms, complementary antonyms, vector antonyms, connotative meaning, linguistic

asymmetry, semantic compensation, functional equivalent, descriptive translation, calqueing / loan translation, cultural-semantic features, lexical-semantic problem.

Аннотация

В данной статье анализируются семантические особенности антонимов в итальянском языке, основные проблемы, возникающие в процессе их перевода, а также эффективные методы преодоления этих трудностей. В частности, отдельно рассматриваются лексико-семантические проблемы и сложности, связанные с культурно-смысловыми различиями между двумя культурами. Кроме того, в статье представлена подробная информация о ряде эффективных методов перевода, используемых для устранения данных проблем.

Ключевые слова

итальянский язык, антонимия, лексико-семантические особенности, структурные антонимы, собственно лексические антонимы, деривационные антонимы, градуальные антонимы, комплементарные антонимы, векторные антонимы, коннотативное значение, языковая асимметрия, семантическая компенсация, функциональный эквивалент, описательный перевод, метод калькирования, культурно-семантические особенности, лексико-семантическая проблема.

Kirish: Har qanday tilning lugʻat tarkibi murakkab tizim boʻlib, undagi soʻzlar oʻzaro turli lisoniy munosabatlarda boʻladi. Shular orasidan borliqni qarama-qarshiliklar orqali anglash va tavsiflashga yordam beruvchi antonimiya hodisasi alohida ahamiyatga ega. Xususan, italyan tili oʻzining yuksak emotsionalligi va boy leksik qatlamlari bilan ajralib turadi. Mazkur tildagi antonimlar shunchaki “oq va qora” kabi mutloq zidliklar bilan cheklanib qolmay, oʻzida juda koʻp semantik nozikliklarni mujassam etadi. Biroq, aynan mana shu nozikliklar tarjima jarayonida jiddiy lisoniy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Zero, bir tildagi maʼnoviy zidlik boshqa bir tilda har doim ham funksional jihatdan mos kelavermaydi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, italyan tilidagi antonimlar koʻp hollarda faqatgina lugʻaviy maʼno darajasida qolmay, chuqur semantik va madaniy-konnativ xususiyatlarga ega boʻladi. Natijada, bitta soʻz turli kontekstlarda turli zidlik aloqalariga kirishishi mumkin, bu esa tarjimondan nafaqat til bilimi, balki chuqur tahliliy yondashuvni ham talab etadi.

Antonimiya hodisasi. Antonimlar bir-biriga qarama-qarshi maʼnoli soʻzlardir, ular tilshunoslikda leksik-semantik munosabatlarning muhim tarkibiy qismi boʻlib oʻziga xos semantik xususiyatlarga ega. Antonimlarning asosiy semantik maʼno

qarama-qarshiligi va semantik yaqinlikdan iborat. Ma'no qarama-qarshiligi (Oppozitsiya): Antonimlar umumiy tushuncha doirasida zidlik ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, italyan tilidagi *grande* (katta) va *piccolo* (kichik) so'zlari o'zaro antonim hosil qilishi uchun ularni birlashtiruvchi umumiy hajm (dimensiya) ko'rsatkichi mavjud bo'lishi shart. Aynan mana shu umumiy asos ularni bitta semantik tizimda birlashtiradi. Semantik yaqinlik: So'zlar o'zaro antonomiyani hosil qilishi uchun bir semantik maydonga ega bo'lishi kerak. Ular bir turkumga mansub bo'lib, bitta umumiy semaga (ma'no) ega bo'ladi. Masalan, italyan tilidagi *caldo* (issiq) va *freddo* (sovuq) so'zlari bitta semantik maydon – harorat; bir xil so'z turkumi – sifatga mansubdir. Nutqda bu so'zlar differensial (farqlash) va antiteza (zidlash) vazifalarini bajarib, tushunchalar o'rtasidagi tafovutni yaqqol ko'rsatishga xizmat qiladi.

Italyan tilidagi antonimlarning strukturaviy va ma'noviy turlari. Italyan tili leksikologiyasida antonimlar nafaqat ma'no jihatdan, balki morfologik strukturasi bilan ham ajralib turadi. Strukturaviy jihatdan antonimlarni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: sof leksik va prefikslar yordamida yasalgan derivatsion antonimlar.

1. Sof leksik antonimlarda o'zaklar butunlay boshqa-boshqa bo'lib, ular orasidagi ma'noviy zidlik chuqur hissiy va falsafiy mazmunga ega bo'ladi. Masalan, *Effirmero* (o'tkinchi, bir kunlik), *Eterno* (mangu, abadiy) juftligi adabiy matnlarda hayot va vaqt tushunchalarini tasvirlashda keng qo'llaniladi.

2. Derivatsion antonimlar bir xil o'zakka prefikslar, ya'ni old qo'shimchalar, masalan, in-, dis-, s-, a-, anti- kabi qo'chimchalar qo'shilishi orqali yasaladi va so'zning ma'nosini keskin o'zgartirib, tilning elastikligini namoyish etadi. Masalan, "s-" prefiksi orqali inkor va teskari harakat/holat ifodalanadi: *Garbato* (xushmuamala) - *Sgarbato* (qo'pol) shaklida yasaladi. Shuningdek, "dis-" prefiksi esa ajratish va inkor ma'nosini yuklaydi: *Armonia* (uyg'unlik) - *Disarmonia* (nomutanosiblik) juftligi bunga misoldir.

Ma'noviy jihatdan antonimlar asosan uchta turga bo'linadi. Bular: Gradual antonimlar, Komplementar antonimlar, Vektor antonimlar.

•Gradual antonimlar (antonimi graduali): Darajalanuvchi xususiyatga ega bo'lib, ular ikki qarama – qarashi so'z orasida oraliq (o'rtacha) tushunchalarni ifodalaydi va ular bir – birini inkor qilmaydi, ya'ni ma'lum bir darajani belgilaydi. Masalan, *alto* (baland) va *basso* (past) o'rtasida *medio* (o'rtacha) tushunchasining mavjudligi bu juftlikning graduonimik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, italyan tilida haroratni ifodalovchi *caldo* - (issiq) va *freddo* - (sovuq) leksik birliklarning orasida *tiepido* - (iliq) yoki *fresco* - (salqin) kabi oraliq bosqichlari mavjud.

D. A Cruse tasnifiga ko'ra, gradual antonimlar semantik tabiati va qo'llanish xususiyatiga ko'ra uchta asosiy ichki turlarga bo'linadi:

1. Qutbiy (Polar) antonimlar. Bunday turdagi antonimlar obyektiv o'lchovga ega bo'lib, ya'ni bunda insonning subyektiv his - tuyg'ulari emas, balki fizik olamdagi obyektiv o'lchash mumkin bo'lgan chiziqli o'lchovlar va xususiyatlar yotadi. Masalan, *lungo* - (uzun), *corto* - (kalta); oraliq bosqichi: *medio* - (o'rtacha).

2. Bir-birini qoplovchi (Overlapping) antonimlar. Bular baholovchi xarakterga ega bo'lib, ularning bir tomoni ijobiy (maqtovchi), masalan, *buono* - (yaxshi), *pulito* - (toza) va ikkinchi tomoni esa salbiy (qoralovchi) jihatga ega. Masalan, *cattivo* (yomon), *sporco* (kir).

3. Ekvipolent (Equipollent) antonimlar. Obyektiv standartlardan ko'ra, insonning sof subyektiv sezgilari va hissiy reaksiyalarini ifodalaydi. Masalan, *piacevole* - (yoqimli), *sgradevole* - (yoqimsiz).

- Komplementar antonimlar (antonimi complementari): Bu juftliklarda birining inkor etilishi ikkinchisining tastiqlanishini bildiradi va oraliq tushuncha mavjud bo'lmaydi. Misol uchun, *vero* - (to'g'ri) va *falso* - (noto'g'ri) ko'rinishida, *vero* o'zining zid ma'noli jufti *falsoni* tastiqlagan holda uchraydi va bunga yana bir misol tariqasida *pari* - (juft) va *dispari* - (toq) so'zlarini keltirish mumkin.

- Vektor antonimlar (antonimi vettoriali): Harakat va munosabatning qarama - qarashi yo'nalishini ifodalaydi. Masalan, *entrare* - (kirmoq) yo'nalishni bildiruvchi fe'lga zid ma'noli so'z sifatida *uscire* - (chiqmoq) so'zini keltirish mumkin, *dare* - (bermoq) va *ricevere* - (qabul qilmoq) fe'llari esa o'zaro teskari munosabatni bildiradi.

Italyan antonimlarini tarjima qilish jarayonidagi muammolar. Leksik - semantik muammo. Tarjima jarayonida tarjimonlar bir qancha lingvistik muammolarga duch kelishadi. Eng asosiy qiyinchiliklardan biri leksik-semantik muammodir, ya'ni bir tildagi muayyan so'z o'z ichiga olgan ma'no ko'lami (semantik maydoni) ikkinchi tilda bir nechta alohida so'zlarga bo'linib ketishi yoki, aksincha, umumlashtirilishidir. Xususan, tarjimon italyan tilidagi antonimik modelni o'zbek tiliga ko'chiryotganda semantik uzilishlarga duch kelishi mumkin, chunki ikki tilda qarama - qarshiliklar darajasi va tabiati turlicha aks etadi. Masalan, italyan tilidagi *dolce* - (shirin) va *amaro* - (achchiq) antonimik juftligi, ushbu so'zlar polisemiya (ko'p ma'nolik) qonuniyatlariga ko'ra ko'chma ma'noda aks etganida, kalkalash (so'zma - so'z tarjima qilish) usuli orqali o'g'irish yoki qat'iy lug'aviy muqobiliga yopishib olish jiddiy semantik uzulishga olib keladi. Xususan, "un tono dolce" birikmasi kalkalash usuli orqali (shirin ohang), "un tono amaro" esa (achchiq ohang) shaklida o'g'iriladi. Biroq, o'zbek tili tabiatida va nutqiy muloqot tizimida insoniy munosabatga nisbatan "shirin ohang" birikmasi deyarli

qo'llanilmaydi, uning o'rniga "muloyim ohang" modeli afzal ko'riladi. Agar tarjimon kontekst talabi bilan uni "muloyim ohang" sifatida tarjima qilsa, uning qutbdoshi hisoblangan "*un tono amaro*" birikmasini (achchiq ohang) shaklida bera olmaydi, chunki bu uslubiy va mantiqiy xatolik hisoblanadi. Buning oldini olish uchun tarjimon o'zbek tilining ichki qonuniyatidan kelib chiqib, "muloyim" so'zining antonimi sifatida "qo'pol ohang" yoki "keskin ohang" birikmalaridan foydalanadi. Natijada, italyan tilidagi antonimik zanjir o'zbek tiliga kelganda butunlay uzilib, boshqa so'zlar bilan almashtiriladi. Yana bir misol tariqasida, komplementar (to'ldiruvchi) antonimlar hisoblanuvchi *Vivo* - (tirik) va *Morto* - (o'lik) juftligining ko'chma ma'nodagi lisoniy asimmetriyasini keltirish mumkin. Italyan tilida iste'molda bo'lgan va muomaladan chiqqan tillarga nisbatan "*lingua viva*" va "*lingua morta*" antonimik birliklari faol qo'llaniladi. O'zbek tili leksik qatlamida muomaladan chiqqan tillarga nisbatan italyan tilidagidek "o'lik til" birikmasi muvaffaqiyatli ishlatiladi. Lekin, muammo uning qarama - qarshi qutbi bo'lgan "*lingua viva*" birikmasida yuzaga keladi. O'zbek tili tabiatida hozirgi kunda amalda bo'lgan, iste'moldagi tillarga nisbatan "tirik til" birikmasini qo'llash xato hisoblanadi. Buning o'rniga "jonli til" yoki "faol til" biriklarining qo'llanishi lisoniy me'yorga to'liq mos keladi.

Bunday leksik-semantik uzilishlarni yengishda eng samarali usullar semantik kompensatsiya va funksional ekvivalentlik hisoblanadi. Chunki ushbu metodologik yondashuv tarjimonga so'zma - so'z tarjimaning tor qolipidan chiqib, matnning umumiy pragmatik va kannotativ (uslubiy - emotsional) yukini saqlab qolish imkonini beradi. Semantik kompensatsiya usuli qo'llanganida, tarjimon leksik birlikning shakliy chizig'iga emas, balki uning xabardagi eng kichik ma'no bo'laklariga (semalariga) e'tibor qaratadi. "*Un tono dolce/amaro*" qarama - qarshiligida muhim semantik invariant - bu ta'm emas, balki nutq eganing ichki ruhiy holati va suhbatdoshiga bo'lgan emotsional munosabatdir. Bu orqali muallif italyan matnida antonimlar yordamida yaratgan kontrast, emotsional bo'yoq va estetik ta'sir o'zbek tilida ham aynan qayta tug'iladi.

Funksional ekvivalentlik esa tarjima matnining o'zbek kitobxonini tomonidan xuddi italyan kitobxonini kabi tabiiy va begonalashuvsiz qabul qilishini ta'minlaydi. Agar "*lingua viva*" birikmasi (tirik til) deb o'girilsa, o'zbek kitobxonida sun'iylik tuyg'usi tug'ular edi. "Jonli til" funksional muqobili esa italyan tilidagi matn beradigan aniq va lisoniy tabiiy taassurotni o'zbek tilida to'la - to'kis takrorlaydi. Mazkur usullar majmuasi qo'llanganda, o'zbekcha tarjima matni sun'iy tarjima tili ta'siridan butunlay halos bo'ladi. Natijada kitobxon matnni begona unsurlarsiz, o'z ona tilidek erkin va aniq idrok etadi.

Madaniy - ma'no tafovuti muammosi. Tarjima jarayonida eng ko'p uchraydigan va qiziqarli muammolardan biri madaniy - ma'no tafovutlaridir. Mazkur muammoga hatto antonimik juftliklarni tarjima qilish jarayonida ham tez - tez duch kelish mumkin. Chunki, antonimlar shunchaki so'zlarning quruq qarama - qarshiligi emas, balki muayyan jamiyatning dunyoqarshi, yashash tarzi, va mentalitetini aks ettiruvchi lisoniy birliklardir. Aynan ushbu omillar antonimik juftliklarning semantik qirralari va kannotativ ma'nosiga to'g'ridan - to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Masalan, *bianco* - (oq) va *nero* - (qora) antonimik juftligi o'zbek tilida o'ziga xos konnotativ xususiyatlarga ega. O'zbek tilida "oq" so'zi mutloq ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lib, "oq ko'ngil, oq yo'l" kabi birikmalarda poklikni ifodalasa, "qora" esa aksincha, mutloq salbiy bo'yoqqa ega bo'lib, "qora niyat, qora xabar" kabi birikmalarda baxtsizlik hamda motam ramzi hisoblanadi. Lekin italyan tilida *nero* - (qora) so'zi har doim ham salbiy ma'noda kelmaydi. Misol uchun, "*essere in nero*" iborasi moliya va biznes diskursida foydaga kirishni, hisobda pul borligini bildiradi va mutloq ijobiy ma'noda qo'llaniladi. Akshincha, hisob raqami bo'shab, qarzdorlikka kirishni "*essere in rosso*" - (qizilda bo'lish) deyiladi. Ya'ni, italyan tilida moliya kontekstida "qora" rangi ijobiy konnotatsiya kasb etadi. Bunday sohadagi so'z va iboralarni tarjima qilish tarjimondan nafaqat tillarning leksik tarkibini, balki mazkur xalq madaniyatini ham chuqur bilishni talab etadi. Yana bir misol tariqasida, *vecchio* - (qari/eski) va *giovane* -(yosh) antonimlarini keltirish mumkin. Ushbu so'zlardan "qari" komponenti o'zbek madaniyatida ulug'vorlik, donolik va hurmat konnotatsiyalariga ega bo'lib, "duogo'y kishi, uyning farishtasi" kabi tushunchalar bilan assotsiatsiya qilinadi. O'zbek madaniyatida qari kishilarga nisbatan salbiy munosabat mavjud emas, "yosh" so'zi esa kuch - g'ayratga to'la davr ma'nosida qaraladi. Ammo italyan madaniyatida va umuman G'arb madaniyatida "*vecchio*" so'zi ko'pincha salbiy va tushkun konnotatsiyani (faoliyatning tugashi, zamondan ortda qolish) tashiydi. Shu sababli, ular nutqda salbiy bo'yoqdan qochish uchun evfemizmlardan foydalanib, keksalarni "*anziano*" deb atashni afzal ko'rishadi. Bunday madaniy - ma'no tafovutlarini bartaraf etishda tasviriy (deskriptiv) tarjima usuli va efemizatsiya strategiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Agar antonimik birlik o'zbek tiliga so'zma - so'z o'girilganda madaniy konnotatsiyasini yo'qotsa yoki noto'g'ri tushunilsa, uni bitta so'z bilan emas, kengaytirilgan ibora yoki tushintirish bilan berish kerak. Masalan, "*essere in nero*" iborasi o'zbekchaga (qorada bo'lmoq) deb o'girib bo'lmaydi, chunki u o'zbek tilida salbiy ma'noda tushuniladi. Uni deskriptiv usulda "moliyaviy barqarorlikka (sof foydaga) erishmoq" deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. O'rganilgan masala yuzasidan quyidagi fikrlarni bildirish maqsadga muvofiqdir:

Italyan tilidagi antonimlarning semantik xususiyatlari xilma - xil bo'lib, ularning ham strukturaviy, ham ma'naviy turlari mavjud. Ularni o'zbek tiliga tarjima qilishda tarjimon leksik - semantik va madaniy ma'no tafovuti muammolariga duch kelishi mumkin. Ushbu muammolarni semantik kompensatsiya, funksional ekvivalentlik va tasviriy tarjima usullaridan foydalangan holda muvaffaqiyatli bartaraf etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Cruse, D. Alan. *Lexical Semantics*. Cambridge University Press, 1986
2. Madjidova, R.U va b. *Tilshunoslik asoslari*. - Toshkent: O'zJTU, 2018
3. Ergashova, B.S. *Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish*. - Toshkent: "LAVITA PRINT" nashriyoti, 2025
4. Mona Baker. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. - London: Routledge, 2018
5. Newmark P. *A Textbook of Translation*. - New York: Prentice Hall, 1988
6. Eco, U. *Dire quasi la stessa cosa. Esperienze di traduzione*. - Milano: Bompiani, 2003
7. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. - Toshkent, 2020